

"ANOR BANK" AJning KUZATUV KENGASHI MAJLISI
QARORIDAN KO'CHIRMA
37 - SON

Toshkent shahri
Shahrisabz ko'chasi, 85

2026 yil 20 iyul

Kuzatuv kengashi raisi:
Kuzatuv kengashi a'zolari:

Nosirov Shoodil Nosirovich
Olimov Kaxramonjon Anvarovich
(majlisda videokonferensaloqa orqali masofadan ishtirok etdi)
Alimov Ikrom Ismoiljonovich
Yuldashev Baxadir Tashpulatovich
Shamansurova Barno Muzaffarovna
Djumaniyazova Anadjan Kudratovna
Safarov Muzaffar Abdinazarovich

Kuzatuv kengashi kotibi

Umarov Nodirbek Erkinovich

Yig'ilish kvorumi -78%

Kun tartibining birinchi masala bo'yicha "ANOR BANK" AJ Boshqaruvchi direktori A.A. Bakiyevni Boshqaruv raisining o'rinbosari - Boshqaruv a'zosi lavozimiga tayinlash to'g'risida"

Kun tartibidagi birinchi masala bo'yicha taqdim etilgan ma'lumotlarni muhokama qilib, taqdim etilgan materiallarni ko'rib chiqib va a'zolarining fikrlarini inobatga olib, shuningdek, bank Ustavining 89-bandiga asosan Bank Kuzatuv kengashi tomonidan

Qaror qabul qilindi:

1.1. Bank Kuzatuv kengashining 2026-yil 3-iyuldagi 33-son bayonnomasining 1-bandi bilan Bakiyev Akmal Akramovichni Boshqaruvchi direktor – Boshqaruv a'zosi lavozimiga tayinlash to'g'risidagi savoli o'z kuchini yo'qotgan, deb hisoblansin;

1.2. Bakiyev Akmal Akramovich "ANOR BANK" AJ Boshqaruv raisining o'rinbosari – Boshqaruv a'zosi etib saylansin va Boshqaruv tarkibiga kiritilsin;

1.3. "ANOR BANK" AJ Boshqaruviga:

- A.A. Bakiyevning Boshqaruv raisining o'rinbosari – Boshqaruv a'zosi lavozimiga nomzodi "Bank faoliyatiga ruxsat berish tartibi va shartlari to'g'risida" 2020-yil 30 iyundagi 3252-sonli Nizom talablariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki bilan kelishib olinsin.

- O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining roziligi olinganidan so'ng, Bakiyev Akmal Akramovich Boshqaruv raisining o'rinbosari – Boshqaruv a'zosi sifatida o'z vazifalarini bajarishga kirishsin.

Kuzatuv kengashi raisi va a'zolari "roziman" deb ovoz berdi.
Qaror bir ovozdan qabul qilindi.

Ko'chirmani tuzdi,

Kuzatuv kengashi kotibi

Umarov N.E.

